

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 82 (1143), 2024-yil 30-aprel, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



FUTBOL BO'YICHA O'ZBEKISTON YOSHLAR TERMA JAMOASIGA

Aziz farzandlarim!

Shu kunlarda Qatar Davlatida futbol bo'yicha yoshlar o'rtasida bo'lib o'tayotgan Osiyo kubogida muvaffaqiyatli ishtirok etib, biryo'la final yo'llanmasini hamda shu yil yozda Parijda o'tkaziladigan Olimpiya o'yinlari yo'llanmasini qo'lga kiritganingiz bilan chin qalbindan samimiy muborakbod etaman.

Jonajon O'zbekistonimizning futbol tarixida birinchi marta erishilgan bunday yorqin g'alabani, hech shubhasiz, mamlakatimizdagi barcha sport muxlislari, ko'p millatli butun xalqimiz cheksiz quvonch va g'urur bilan kutib oldi. Zero, bu el-yurtimizning necha yillik buyuk orzusi edi. Bu orzuni amalga oshirish aynan sizlarga — Yangi O'zbekistonning navqiron farzandlariga nasib etgani bilan har qancha faxrlansangiz, arziydi.

Albatta, sizlar erishgan bu tarixiy g'alaba zamirida keyingi yillarda mamlakatimizda sport sohasini, jumladan, futbolni rivojlantirishga berilayotgan ulkan e'tibor va amalga oshirilayotgan keng ko'lamli amaliy ishlar mujassam, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Shu bilan birga, sizdek azm-u shijoatli yoshlarimizning tajribali murabbiy va mutaxassislar rahbarligida mazkur musobaqaga puxta tayyorgarlik ko'rib, har bir o'yinda chinakam mahorat, jasorat va matonat namunasini ko'rsatganingiz albatta yuksak tahsinga munosibdir.

Osiyo qit'asidagi eng kuchli jamoalar bilan qizg'in kurashlar ostida bo'lib o'tgan 5 ta o'yinda ham jamoamiz darvozasini daxtsiz saqlab, raqiblar darvozasiga 14 ta javobsiz to'p kiritganingiz ham futbolimiz tarixida misli ko'rilmagan natijadir.

Ishonchim komilki, sizlar bu yutuqdan yanada ruhanib, final bel-lashuvida "Osiyo chempioni" degan sharafli nom uchun munosib kurash olib borasiz.

Fursatdan foydalanib, barchangizga, sizlarning mehribon o'tonalaringiz, ustoz-murabbiylaringizga ham chin qalbindan minnatdorchilik bildiraman.

Butun O'zbekiston xalqi sizlarga hamisha baxt va omdalar, porloq g'alabalalar tilaydi, aziz bolalarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMIGA TAYYORGARLIK BO'YICHA AXBOROT BERILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 29-aprel kuni III Toshkent xalqaro investitsiya forumiga tayyorgarlik bo'yicha taqdimot bilan tanishdi.

Ushbu anjumaning nufuzi va ko'lami tobora oshib bormoqda. 2022-yilda o'tgan ilk forumga 56 mamlakatdan mingdan ziyod xorijiy mehmonlar kelgan bo'lsa, bu yil 84 ta davlatdan qariyb 2 ming 500 kishi qatnashishi kutilmoqda. Ular orasida hukumat vakillari, yirik kompaniyalar rahbarlari, BMT, YTTB, OPEK, SHHT kabi xalqaro tashkilotlardan yuqori martabali mehmonlar bor.

Shu bois, forumga puxta tayyorgarlik ko'rish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining farmoyishi qabul qilindi. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan tegishli vazirliklar bilan hamkorlikda barcha tashkiliy chora-tadbirlar ko'rildi.

Forum mamlakatimizning iqtisodiy imkoniyatlarini ko'rsatish hamda o'zaro manfaatli loyihalarni kelishish uchun qulay maydondir. Shu bois, uning doirasidagi tadbirlar, muhokama qilinadigan masalalar ko'p. Jumladan, sho'ba majlislari, davra suhbatlari, taqdimotlar, huku-

matlararo komissiya yig'ilishlari kabi 40 dan ortiq tadbirlar rejalashtirilgan. Shuningdek, yurtimizdagi qator loyihalarni ishga tushirish marosimi ko'zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari forumni yuqori darajada tashkillashtirish, har bir tarmoq va hududning investitsiyaviy salohiyatini to'la namoyon etish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

3-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining ikkinchi yalpi majlisi ham o'tkazildi.

Ma'lumki, ushbu kengash jahon tajribasi va amaliyotlariga tayangan holda, O'zbekiston hukumati mamlakatni investitsiyaviy, sanoat-texnologik va innovatsion rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlari bo'yicha maslahatlar beradi. Bu galgi majlisdan ham mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash va istiqbolli loyihalarni amalga oshirishga doir dolzarb masalalar ko'rib chiqiladi.

O'ZA

GEOLOGIYA VA KON-METALLURGIYA SOHALARIDAGI REJALAR KO'RIB CHIQUILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 29-aprel kuni geologiya va kon-metallurgiya sohalari-dagi vazifalar muhokamasi yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Mamlakatimizda geologiya sohasiga har yili 1 trillion so'mdan mablag' ajratilib, manzilli dasturlar amalga oshirilmoqda. Natijada o'tgan yili tog'-kon sanoatida ishlab chiqarish hajmi qariyb 11 milliard dollarga yetdi.

Lekin bu, asosan, qimmatbaho va rangli metallar yo'nalishida bo'lib, sanoat uchun muhim minerallar bo'yicha foydalanilmagan juda katta zaxira mavjud. Xususan, yurtimizda 32 turdagi shunday qazilma boyliklari bor.

Shu bois, 15-yanvar kuni o'tgan taqdimotda davlatimiz rahbari bu yo'nalishdagi imkoniyatlarni ishga solish bo'yicha topshiriqlar bergan edi. Bugungi yig'ilishda boshlangan ishlar, reja va takliflar ko'rib chiqildi.

Bugun jahonda texnologik vaziyat tez o'zgarayapti. Elektromobil, "yashil" energetika, elektrotexnika sanoatida kamyob metallarga talab tobora ortib bormoqda. Shuning uchun so'nggi yillarda jahon bozorida molibden, tellur, selen, grafit narxlari keskin oshgan.

Prezidentimiz bu sohadagi ulkan imkoniyatlarni ko'rsatib o'tdi. Sanoat uchun muhim minerallar xomashyosi hamda ularning turini kengaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Hozirda yurtimizda 6 turdagi shunday mahsulot ishlab chiqariladi. Bunga qo'shimcha platina, indiy, vanadiy metallari hamda volfram, molibden, rux, marganes kabi

minerallardan yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar olish imkoniyati bor. Masalan, avvallari o'zimizda bo'lmagan kukun metallurgiyasida yiliga 300 million dollarlik, uskunalar va butlovchi qismlar yo'nalishida 100 million dollarlik qiymat yaratish mumkin.

Yaqinda Yevropa Ittifoqi bilan muhim minerallar bo'yicha erishilgan kelishuv bu borada katta bozor ochadi.

Shulardan kelib chiqib, mutasaddilarga xorijiy ekspert va investorlar ishtirokida kamyob metallar bo'yicha 500 million dollarlik istiqbolli loyihalar dasturini shakllantirish topshirildi. Bu yo'nalishni ilm bilan rivojlantirish, shu maqsadda loyiha ofisi tashkil etib, yetakchi institut va ilmiy markazlarni jalb qilish zarurligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda Navoiy kon-metallurgiya kombinatida qimmatbaho metallar zaxirasini ko'paytirish rejalari ham ko'rib chiqildi. Mutasaddilar oltin zaxirasini va ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyatlari haqida axborot berdi.

Prezidentimiz kombinatda ishlab chiqarish tannarxini 10-15 foizga pasaytirish, sanoat kooperatsiyasi va mahalliy lashtirish qamrovini kengaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Qimmatbaho metallar sohasida ilg'or texnologiyalar ilmiy markazini tashkil qilish vazifasi qo'yildi.

O'ZA

TARIXIY G'ALABA MUBORAK!

futbolchilarimiz ilk bor Olimpiya o'yinlariga yo'llanmani qo'lga kiritdi

Kecha Qatar yashil maydonlarida bo'lib o'tayotgan yoshlar o'rtasidagi Osiyo kubogi yarim finalida O'zbekiston terma jamoasi indoneziyalik tengdoshlariga qarshi bahs olib bordi.

Keskin kurashlar va murosasiz o'yinda futbolchilarimiz raqiblari ustidan 2:0 hisobida zafar quchdi. Vakillarimiz mazkur natija orqali tarixda ilk marotaba jamoaviy sport turida Fransiyada o'tkaziladigan "Parij-2024" Olimpiadasida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi.

Bugun butun xalqimiz ushbu tarixiy g'alabani bayram qilmoqda. Ko'nglimiz tog'dek ko'tarildi. Xalqning, millatning ko'nglini ko'tarish oson ish emas. Bu mashaqqatli mehnat, halol va sof vijdon bilan ish tutish, o'z vaqtda to'g'ri qarorlar qabul qilish samarasidir, albatta.



Shu o'rinda bir mulohaza. Keyingi yillarda yangi O'zbekistonda jamoaviy o'yinlar rivojlanib bormoqda. Bu nimaning samarasi?

Prezidentimizning futbol bo'yicha O'zbekiston yoshlar terma jamoasiga yo'llagan tabrigida aytilganidek, "Albatta, sizlar erishgan bu tarixiy g'alaba zamirida keyingi yillarda mamlakatimizda sport sohasini, jumladan, futbolni rivojlantirishga berilayotgan ulkan e'tibor va amalga oshirilayotgan keng ko'lamli amaliy ishlar mujassam, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz".

Bu yuqoridagi savolimizga aniq va eng to'g'ri javob. Va yana aytish joizki, bugungi yoshlarimizda milliy g'urur tobora

kuchayib bormoqda. Ular Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi buyuk bobolarimizga munosib bo'lish yo'lidani dadil odimlamoqda.

Oldinda esa bizni navbatdagi sinovlar, Parij stadionlari kutib turibdi.

Eslatib o'tamiz, Osiyo kubogi doirasida terma jamoamiz 3-may kuni Yaponiyaga qarshi final bahsida maydonga tushadi. Fransiyadagi XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlari esa 26-iyul – 11-avgust kunlari bo'lib o'tadi.

Matonatli, azm-u shijoatli yoshlarimizga bu tarixiy yo'lda zafarlar yor bo'lishini tilab qolamiz!



Muhim sana

ORADAN BIR YIL O'TDI

YOXUD YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYAMIZNING AYRIM JIHATLARIGA CHIZGILAR

Bugun yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz referendum orqali qabul qilinganiga bir yil o'tdi. O'tgan yili mazkur siyosiy jarayonning ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa jabhalardagi ahamiyati haqida ko'p gapirildi, tarixiy voqeilik sifatida baholandi.

2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyani yoqlab ovoz bergandi. Uning bu taqdimot qabul bo'lganiga ovozda ma'qullanishi, qolaversa, mazkur jarayonda umumiy saylovchilarning qariyb 85 foizi qatnashgan ushbu hujjatda yurtidoshlarimizning yangi O'zbekistonni barpo etishga doir orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganidan ham dalolat edi.

2023-yil 8-may kuni esa Prezidentimizning "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish



bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Ushbu hujjat yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ustuvor prinsiplaridan kelib chiqib, uni amalga oshirish bo'yicha davlat organlari va tashkilotlari oldida turgan birinchi galgadi vazifalar belgilab berilgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

Davomi 2-beta

Obodlik

HAYOTNING HAR LAHZASI GO'ZAL...

Qishloq odamlari turmushidan reportaj



4

